



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI HUZURIDAGI FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI MABLAG‘LARINI
BOSHQARISH BO‘YICHA PARLAMENT KOMISSIYASINING
QARORI**

2025-yil 23-dekabr

01-10/46-son

Toshkent shahri

2025-yil 3-davlat granti tanlovi g‘oliblarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida

Parlament komissiyasining 2025-yil 8-oktyabrdagi 01-10/36-sonli “2025-yil 3-davlat granti tanlovlarini e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan 2025-yil 10-oktyabrdan 9-noyabrgacha davlat granti loyihalarini taqdim etish uchun “ngo.gov.uz” yagona elektron platformasi orqali ochiq tanlovlar tashkil etildi.

E‘lon qilingan 12 ta yo‘nalish bo‘yicha 4 ta davlat granti tanlovlariga fuqarolik jamiyati institutlaridan 437 ta loyiha kelib tushdi va Parlament komissiyasi a‘zolaridan iborat Fuqarolik jamiyati institutlarining dasturlari va loyihalarini ijtimoiy hamda umum ahamiyatini baholash bo‘yicha Ishchi guruhi tomonidan “ngo.gov.uz” yagona elektron platformasi orqali baholandi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, Parlament komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Oliy Majlis jamoat fondi va uning alohida bo‘linmalari 2025-yil 3-davlat granti tanlovi g‘oliblarining ro‘yxati 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi va uning alohida bo‘linmalari: 2025-yil 3-davlat granti tanlovi g‘oliblarining ro‘yxatini “ngo.gov.uz” yagona elektron platformasi orqali e‘lon qilsin va g‘oliblarga 10 kun muddatda sertifikatlarni topshirsin;

G‘olib bo‘lgan 33 ta fuqarolik jamiyati institutlari bilan belgilangan tartibda shartnoma imzolasin va moliyalashtirsin.

3. Parlament komissiyasining mas‘ul kotibi K.Tojiyev qaror nusxasini ijrochilarga yuborsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Parlament komissiyasi raisi o‘rinbosari, senator A. Eshmuratov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Parlament komissiyasining yig‘ilishi bayonnomasi.

**Parlament komissiyasi
Raisi**

A. Shadmanov

2025-yil 10-oktyabrda 9-noyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan o'tkazilgan "Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish" mavzusidagi davlat granti tanlovi yakuni natijalariga ko'ra Parlament komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan

LOYIHALAR RO'YXATI

№	Fuqarolik jamiyati instituti nomi	Loyiha nomi	Tanlov yo'nalishi	Ajratilgan mablag'
1.	Navoiy viloyati "Baxt qasri" markazi 15/16-G/25-09/39	"Oila — jamiyat va davlat himoyasida." Muddati: 5 oy		120 000 000
2.	"Dialog" nodavlat notijorat tashkiloti Jizzax viloyati hududiy bo'linmasi 15/16-G/25-11/12	"Sog'lom oila — ongli tanlovdan boshlanadi." Muddati: 6 oy		150 000 000
3.	"Shanaraq" ilmiy, ijtimoiy, gumanitar va yoshlar tashabbuslari markazi 15/16-G/25-14/85	"Erta nikohning oldini olish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish." Muddati: 6 oy	1. Erta nikohning oldini olish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish.	130 000 000
4.	"Oydin yo'l" gazetasi tahririyati 15/16-G/25-06/15	"Erta nikoh muammolarning boshlanishi." Muddati: 6 oy		180 000 000
5.	O'zbekiston ayollar va qizlar uyushmasi Xorazm viloyati hududiy bo'linmasi 15/16-G/25-02/9	"Oila — muqaddas dargoh." Muddati: 6 oy		140 000 000
6.	Navoiy viloyat "Muruvvat" yoshlar va ayollar markazi 15/16-G/25-09/40	"Mehr va ishonch - oilaviy barqarorlik poydevori." Muddati: 4 oy	2. Notinch va noqobil farzandlari bo'lgan oilalar bilan manzilli ish olib borish,	80 000 000

7.	Andijon viloyati "Hamroh" nodavlat notijorat tashkiloti 15/16-G/25-13/13	"Farzandiga "Hamroh" oila." Muddati: 6 oy	barqaror ma'naviy muhitni yaratish. 170 000 000
8.	Jizzax viloyati "Madadkor" ijtimoiy-huquqiy axborot markazi 15/16-G/25-11/13	"Barqaror oila — tinch jamiyat asosi." Muddati: 6 oy	170 000 000
9.	Bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi Xorazm viloyati hududiy bo'linmasi 15/16-G/25-02/5	"Tinch oila — baxtli bola!" Muddati: 6 oy	140 000 000
10.	Bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi Namangan viloyati hududiy bo'linmasi 15/16-G/25-08/12	"Baxtli oila-jamiyatning yuragi." Muddati: 6 oy	140 000 000
11.	"Do'stlik" fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi 15/16-G/25-05/11	"Farovon hayot sari ilk qadam." Muddati: 6 oy	190 000 000
12.	"Isenim" axborot-targ'ibot resurs markazi 15/16-G/25-14/90	"Vatan bag'rida: Migrantlar reintegratsiyasiga ko'mak." Muddati: 6 oy	100 000 000
13.	Respublika "Istiqbolli avlod" ijtimoiy axborot markazi Sirdaryo viloyati bo'limi 15/16-G/25-06/1	"Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni kompleks qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatga moslashishida ko'maklashish." Muddati: 5 oy	3. Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning jamiyatga moslashishi bo'yicha ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish. 160 000 000
14.	O'zbekiston Koreys madaniy markazlari assotsiatsiyasi	"Земля обретенная: Корейцы Пастдаргомского района." Muddati: 6 oy	4. Turi millat va elat vakillari o'rtasidagi totuvlikni ta'minlashga, milliy madaniy 180 000 000

	Samarqand viloyati hududiy bo'limi 15/16-G/25-07/15		markazlar va do'stlik jamiyatlarini rivojlantirishga.	
15.	O'zbekiston Qozoq milliy madaniy markazi Toshkent viloyati bo'linmasi 15/16-G/25-01/30	“Qozoq millatining urf odatlari.” Muddati: 5 oy		100 000 000
16.	O'zbekiston Qirg'iz milliy markazining Andijon viloyati hududiy bo'linmasi 15/16-G/25-13/8	“O'zbek va qirg'iz xalqlari do'stligi: madaniyat, qadriyat va meros.” Muddati: 6 oy		180 000 000
17.	O'zbekiston Rus madaniy markazi 15/16-G/25-01/17	“Выпуск II издания Книги-альбома "В семье единой. Русский культурный центр Узбекистана.” Muddati: 6 oy		160 000 000
18.	Tojik milliy madaniy markazini Toshkent viloyati bo'limi 15/16-G/25-04/11	“Turli millat va elat vakillari o'rtasidagi totuvlikni ta'minlashga, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarini rivojlantirish.” Muddati: 4 oy		150 000 000
19.	Qashqadaryo viloyati Tatar boshqirdlar milliy madaniy markazi 15/16-G/25-10/22	“Улучшение ряда важных факторов обеспечения межнационального согласия на региональном и международном уровнях.” Muddati: 6 oy		180 000 000
20.	Qashqadaryo viloyati Arablar milliy madaniy markazi 15/16-G/25-10/21	“Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik: Qashqadaryo Arablari nigohida.” Muddati: 6 oy		170 000 000
21.	“Muloqot” jamoat birlashmasi 15/16-G/25-01/31	“Maishiy korrupsiya omillarini aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish.” Muddati: 6 oy	5. Maishiy korrupsiya holatlarini keltirib chiqaradigan omillar va unga	150 000 000

22.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Jasliq” hududiy tadqiqot markazi 15/16-G/25-14/72	“Korrupsiyaning ijtimoiy hodisa sifatida vujudga kelish omillari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tavsiyalar.” Muddati: 4 oy	jamoatchilikning munosabatini o‘rganish bo‘yicha ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish.	150 000 000
23.	O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi 15/16-G/25-01/14	“Jamoatchilik ishtirokida maishiy korrupsiya holatlarini o‘rganish va tahlil qilish.” Muddati: 4 oy		80 000 000
24.	Navoiy viloyati “Parvoz” ijtimoiy ko‘mak markazi 15/16-G/25-09/24	“Korrupsiyasiz kelajak sari: Navoiy viloyatida maishiy korrupsiya sabablari va fuqarolarning unga bo‘lgan munosabatini o‘rganish.” Muddati: 4 oy		140 000 000
25.	“Korrupsiyasiz kelajak” jamoat birlashmasi 15/16-G/25-01/7	“Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish.” Muddati: 4 oy		160 000 000
26.	“Guliston hayoti” gazetasi tahririyati 15/16-G/25-06/7	“Korrupsiya - jamiyat taraqqiyoti uchun xavf.” Muddati: 6 oy		170 000 000
Jami				3 840 000 000

2025-yil 10-oktyabrda 9-noyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining Samarqand, Sirdaryo va Surxondaryo bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan davlat granti tanlovlari yakuni natijalariga ko'ra Parlament komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan LOYIHALAR RO'YXATI

No	Fuqarolik jamiyati instituti nomi	Loyiha nomi	Tanlov yo'nalishi	Ajratilgan mablag'
Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Samarqand viloyati bo'linmasi				
1.	“Sebaston” fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi 07/3-G/25-07/2	“Obod mahallam!” Muddati: 3 oy	1. Kattaqo'rg'on tumani “Sebaston” mahallasi aholisini elektr energiyasi bilan ta'minlashga ko'maklashish. 2. Pastdarg'om tumani “Nayman” va “A.Temur” mahallalari aholisini sog'lom turmush tarziga jalb etish maqsadida vorkaut maydoni tashkil etishga ko'maklashish.	115 000 000
2.	“Katta nayman” fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi 07/3-G/25-07/4	“Sergeli tumani “Yuqori darxon” mahallasidagi ijtimoiy ko'makka muhtoj aholini sog'lomlashtirishga ko'maklashish.” Muddati: 4 oy	1. Kattaqo'rg'on tumani “Sebaston” mahallasi aholisini elektr energiyasi bilan ta'minlashga ko'maklashish. 2. Pastdarg'om tumani “Nayman” va “A.Temur” mahallalari aholisini sog'lom turmush tarziga jalb etish maqsadida vorkaut maydoni tashkil etishga ko'maklashish.	90 000 000
Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Sirdaryo viloyati bo'linmasi				
3.	Sirdaryo viloyati “Hilol” nodavlat notijorat tashkilot 06/3-G/25-06/2	“Sirdaryo tumanidagi ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarni o'zini-o'zi band qilish.” Muddati: 3 oy	1. Sirdaryo tumanidagi ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarni o'zini-o'zi band qilish maqsadida zarur asbob-uskunalar bilan ta'minlash.	100 000 000
4.	“Yangi davr nigohi” nodavlat notijorat tashkiloti 06/3-G/25-06/17	“Sirdaryo tumanidagi ijtimoiy muammolarni hal qilish.” Muddati: 3 oy	2. Sirdaryo tumani mahallalari aholisini elektr energiyasi bilan ta'minlashga ko'maklashish.	100 000 000
5.	“Buyuk kelajak sari” ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash markazi	“Sirdaryo tumanidagi ijtimoiy nochor fuqarolarga ko'maklashish.” Muddati: 4 oy	3. Sirdaryo tumanida ijtimoiy ko'makka muhtoj aholisini yashash	100 000 000

	06/3-G/25-06/16		sharoitini yaxshilashga ko‘maklashish.	
6.	O‘zbekiston Qizil yarim oy jamiyati Sirdaryo viloyati hududiy bo‘linmasi 06/3-G/25-06/6	“Sog‘lom hayot sari — ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sog‘lomlashtirish dasturi.” Muddati: 5 oy	4. Sirdaryo tumanidagi ijtimoiy ko‘makka muhtoj aholini sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish.	105 000 000
Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Surxondaryo viloyati bo‘linmasi				
7.	“Sayrak” fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi 05/3-G/25-05/1	“Uying yorug‘-ko‘ngling yorug‘” Muddati: 3 oy	1. Oltinsoy tumani “Sayrak” MFY aholisini elektr energiyasi bilan ta’minlashga ko‘maklashish.	197 500 000
Jami				807 500 000